

FONETIK VA GRAFIK JIHATDAN O'ZLASHGAN ARAB DIPLOMATIK TERMINLARI

Mirziyatov Shuhrat,

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya: Ushbu maqolada diplomatiya va xalqaro munosabatlar sohasidagi arab tili diplomatik terminlarining o'zlashishi hamda ularning til muhitiga moslashish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Arab standartlashtirish oliy qo'mitasi (AIDMO) ichki nizomiga tayangan holda xorijiy atamalarning arab tiliga kirib kelish usullari — arablashtirish (ta'rīb), fonetik ko'chirish (an-naql aş-şawṭī), leksik o'zlashtirish (al-iqtirāḍ al-lughawī) va fonetik transliteratsiya (at-tarjama aş-şawṭiyya) kabi to'rtta asosiy tabaqalanish doirasida o'rganilgan. UNESCO, UNICEF, NATO va Interpol kabi xalqaro tashkilotlar hamda diplomatik terminlar misolida o'zlashma birliklarning arab tili fonetik, grafik va grammatik tizimiga moslashish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Arab tili, diplomatik terminologiya, o'zlashma so'zlar, arablashtirish (ta'rīb), fonetik transliteratsiya, leksik o'zlashtirish, AIDMO, xalqaro munosabatlar diskursi.

Kirish. Diplomatiya va xalqaro munosabatlar sohasida arab tili juda boy terminologik tizimga ega. Ayniqsa, XX–XXI asrlarda xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida arab tiliga ingliz, fransuz, fors, turk va lotin tillaridan ko'plab diplomatik terminlar o'zlashgan. Bu terminlar arab tili fonetik, morfologik va grammatik qoidalariga moslashtirilgan holda qo'llanadi. Taraqqiyot natijasida muayyan tilga o'zlashayotgan har qanday so'z (termin) yoki til elementlari yangi til muhitida uzoq muddatli moslashuv jarayonini boshidan o'tkazadi. Zero, so'z o'zlashtirilayotgan til bilan o'zlashtiruvchi tilning tovushlar sistemasi hamda grammatik qurilishi ko'p hollarda bir-biridan farq qiladi.

Bundan tashqari, o'zlashtirilayotgan so'z yoki termin har doim ham manba-tildagi ma'nosi bilan o'zlashtirilavermaydi, o'zlashtiriluvchi tilning fonetik va grammatik tizimiga moslashtiriladi. Bunda, eng avvalo, o'zlashayotgan so'z yoki terminning o'zlashtiruvchi tilga mos kelmaydigan tovushlari tushib qoladi yoki almashadi. Almashinayotgan tovushlar bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lishi lozim.

Arab diplomatik terminologiyasida ham fonetik moslashuv jarayonidan o'tgan terminlar yetarli. Sababi, birinchidan, arab tilidagi diplomatik terminlarining, asosan, o'zlashmalardan tashkil topganligi, ikkinchidan, mazkur o'zlashmalarning arab tili fonetik tizimi va talaffuz normasiga mos kelmasligi bilan izohlash mumkin.

Metod. J. Watsonning ilmiy ishi arab tili fonologiyasi va morfologiyasiga bag'ishlangan fundamental manbalardan biridir (Watson J. C. E. *The Phonology and Morphology of Arabic*. Oxford: Oxford University Press, 2002. XIII, 307 p.). Bu kitob arab tilida so'z tuzilishi, morfologik qoliplar, fonologik moslashuv va so'z shakllanish jarayonlarini tushuntirish uchun muhim. O'zlashma terminlar arab yozuvi va talaffuziga moslashganda, ularni fonetik-morfologik jihatdan tahlil qilishda Watson manbasi nazariy tayanch bo'la oladi.

Oxirgi yillarda qadrlil ilmiy manbalar qatorida J. al-Kinayning "Morphophonemics of loanwords in Arabic" maqolasi asosiy tahliliy material hisoblanmoqda (Al-Qinai J. B. S. *Morphophonemics of loanwords in Arabic // Studies in the Linguistic Sciences*. 2000. Vol. 30, № 2. P. 1–25.). Bu maqola aynan arab tilida o'zlashma so'zlarning morf fonemik moslashuviga bag'ishlangan. Unda arablashtirish jarayoni chet so'zlarni arab tiliga fonologik yoki morfologik o'zgarishlar orqali kiritish, ularni arab fonologik va morfologik qoliplariga moslashtirish sifatida izohlanadi.

Ayni kungacha arab dunyosida til siyosatining katta markazi hisoblangan Arab Industrial Development, Standardization and Mining Organization (keyinchalik – AIDMO) tashkilotining النظام الداخلي للجنة العربية العليا للتقييس (An-Nizām ad-Dākhilī lil-Lajna al-‘Arabiyya al-‘Ulyā lit-Taḡyīs) “Arab standartlashtirish oliy qo‘mitasining ichki nizomi”da fonetik o‘zlashmalar va arablashtirish haqida quyidagi tabaqalashtirish keltiriladi:

1. التعريب (ta‘rīb) ‘arablashtirish’;
2. النقل الصوتي (an-naql aṣ-ṣawtī) ‘fonetik ko‘chirish’;
3. الاقتراض اللغوي (al-iqtirād al-lughawī) ‘leksik o‘zlashtirish’;
4. الترجمة الصوتية (at-tarjama aṣ-ṣawtiyya) ‘fonetik transliterasiya’.

Quyida arab diplomatik o‘zlashma terminlari yuqoridagi taqsimot asosida tahlil qilinadi.

Natijalar. 1. التعريب (ta‘rīb) – ‘arablashtirish’

Bu bo‘yicha AIDMONing Nizomida quyidagicha yozib qo‘yilgan (النظام الداخلي للجنة العربية العليا (للتقييس. مركز المواصفات والمقاييس الرباط. 2020: ص. 3):

تتعمد اللغة العربية على التعريب في إدخال المصطلحات الحديثة. Ta‘tamidu al-lugha al-‘arabiyya ‘alā at-ta‘rīb fī idkhāl al-muṣṭalaḥāt al-ḥadītha. “Arab tili zamonaviy terminlarni kiritishda arablashtirish usuliga tayanadi”.

Arab tili diplomatik terminlari orasida bu turdagi o‘zlashmalar kam foizni tashkil qiladi. Sababi, arab tilining o‘z fonetik va grammatik qoidalari borki, o‘zlashmalarni hech qanday o‘zgarishsiz qabul qilishning iloji yo‘q. Arab tilida qaysi soha va qaysi tildan o‘zlashmasin, arab grafikasida ifodalanishi tabiiy. Ular asosan ingliz, fransuz va lotin tillaridan kirib kelgan bo‘lib, arab tilida grafik moslashuv bosqichidan o‘tgan.

Masalan: بروتوكول *brūtūkūl* (ing. ‘protocol’) ‘protokol’, سانشن *sānkshin* (ing. ‘sanction’) ‘sanksiya’, مهمة دبلوماسية *mihma dīblūmāsiyya* (ing. ‘diplomatic mission’) ‘diplomatik missiya’, استراتيجية *brūtūkūl dīblūmāsī* (‘diplomatic protocol’) ‘diplomatik protokol’, بروتوكول دبلوماسي *istīrātījiyya* (ing. ‘strategic’) ‘strategiya’, قنصل *qunṣul* (ing. ‘consul’) ‘konsul’ va boshqa ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Arab tilida **p** tovushining mavjud emasligi sababli **b** harfi bilan almashtirish ishlari kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi ‘diplomacy’ ‘diplomatiya’ termini دبلوماسية *dīblūmāsiyya*, ‘parliament’ termini برلمان *barlamān* ‘parlament’ ishlatiladi.

تواصل الأمم المتحدة التطور في دورها المحوري في الدبلوماسية من أجل السلام، مستخدمة أدوات متعددة للتفاوض والوساطة وتعزيز التعاون. Wa tuwāṣilu al-Umam al-Muttaḥida at-taṭawwur fī dawrihā al-maḥwarī fī ad-dīblūmāsiyya min ajli as-salām, mustakhdimatan adawāt muta‘addida li at-taḥwūḍ wa al-wisāṭa wa ta‘zīz at-ta‘āwun. “BMT tinchlik yo‘lidagi diplomatiya sohasida o‘zining markaziy rolini rivojlantirishda davom etmoqda, muzokara, vositachilik va hamkorlikni kuchaytirish uchun turli vositalardan foydalanmoqda.”

الدبلوماسية البرلمانية هي وسيلة لبناء العلاقات وتعزيز التعاون بين البرلمانات الوطنية. Ad-dīblūmāsiyya al-barlamāniyya hiya wasīla li-binā’ al-‘alāqāt wa ta‘zīz at-ta‘āwun bayna al-barlamānāt al-waṭaniyya. “Parlament diplomatiyasi milliy parlamentlar o‘rtasida munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va hamkorlikni mustahkamlash vositasidir”.

2. النقل الصوتي (an-naql aṣ-ṣawtī) – ‘fonetik ko‘chirish’

Nizomda xorijiy so‘z talaffuzini arab tovushlari orqali imkon qadar aniq ko‘chirish deb belgilab qo‘yilgan, asosan tovush saqlanishiga urg‘u beriladi (نظام الداخلي للجنة العربية العليا للتقييس. مركز (المواصفات والمقاييس الرباط. 2020: ص. 3). O‘zlashmalardagi **a** tovushining **o** (transkripsiyasi – ā)ga aylanishi. Misollarga diqqat qiling: ingliz tilidan o‘zlashma bo‘lgan ‘federal’ arab tili diplomatik terminologiyasiga فدرالي *fīdrālī* bo‘lib qabul qilingan. Bu yerda o‘zlashmadagi so‘z o‘rtasida bo‘lgan **a** tovushi **o** unlisiga aylanganini guvohi bo‘lamiz. Shu bilan birga grafik moslashuv jarayonini ham bosib o‘tgan.

Xuddi shunday, ingliz tilidan kirgan ‘sanction’ ‘sanksiya’ termini arab diplomatik terminologiyasiga o‘tganda سانكشن *sānkshin* sifatida qo‘llanadi.

فرضت الدول الغربية سانكشنات اقتصادية جديدة على الدولة بسبب انتهاكها للقانون الدولي. *Faraḍat ad-duwal al-gharbiyya sānkshenāt iqtisādiyya jadīda ‘alā ad-dawla bisababi intihākīhā lil-qānūn ad-duwalī.* “G‘arb davlatlari xalqaro huquqni buzgani sababli davlatga yangi iqtisodiy sanksiyalar joriy qildi”.

Bu yerda سانكشنات *sānkshānāt* inglizcha ‘sanctions’ so‘zining arab tilidagi fonetik o‘zlashgan shakli hisoblanadi. (Arab tili akademiyasi tomonidan سانكشن *sānkshin* o‘zlashma termini uchun عقوبات — ‘*Uqūbāt* (“sanksiyalar, jazo choralari”) varianti taklif etiladi. Bu tilda sinonimiya hodisasining kelib chiqishiga asos bo‘ladi.

فرض مجلس الأمن عقوبات على الدولة. *Faraḍa Majlis al-Amn ‘uqūbāt ‘alā ad-dawla.* “Xavfsizlik Kengashi davlatga sanksiyalar qo‘lladi”.

Butun dunyoda ko‘pgina hollarda o‘z shakli kabi ishlatiladigan xalqaro terminlar mavjud, masalan, ‘visa’ ‘viza’. Ushbu termin arab tilida ikki joyda fonetik moslashuv jarayonini bosib o‘tgan: birinchidan, **v** tovushi arab tiliga o‘zlashayotgan o‘z o‘rnida **f** tovushiga aylangan, ikkinchidan so‘z oxiridagi **a** tovushi **ā** ga aylanib, yozuvda ham o‘z aksini topgan – فيزا *fīzā* shaklida

يجب على المسافرين الحصول على فيزا قبل دخول الدولة. *Yajibu ‘alā al-musāfir al-ḥuṣūl ‘alā fīzā qabla dukhūl ad-dawla.* “Sayohatchi davlatga kirishdan oldin viza olishi kerak.”

Arab akademiyasi tomonidan ushbu ‘viza’ termini uchun rasmiy tasdiqlangan تأشيرة *ta’shīra* termini taklif qilingan va rasmiy hujjatlarda ishlatiladi

طلب تأشيرة دخول من ممثلات المملكة في الخارج. *Ṭalab ta’shīrat dukhūl min mumaththilīyāt al-mamlaka fī al-khārij.* “Qirollikning xorijdagi vakolatxonalaridan kirish vizasiga ariza berish”.

هي خدمة تمكن من الاستعلام عن تأشيرة صادرة من وزارة الخارجية. *Hiya khidmatu mukkin min al-istifhām ‘an ta’shīra ṣādīra min Wizārat al-Khārijīyya.* “Bu Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan viza haqida ma’lumot olish xizmati hisoblanadi”.

E’tiboringizni yana bir misolga qaratsak: arab diplomatik terminologiyasida fransuz tilidan kirgan ‘attaché’ ‘attashe’ (diplomatik va vakolatxonada muayyan soha bo‘yicha mas’ul xodim) uchun أتاشيه *atāshīh* shaklida o‘zlashma termin ishlatiladi. Bu yerda ham yuqoridagi tartib ishlatilganini ko‘rish mumkin, ya’ni so‘z o‘rtasiga tovush talaffuz normasi va grafik moslashuvga ko‘ra o‘zgarib, o‘zlashgan.

شارك الأتاشيه الثقافي في الاجتماع الدبلوماسي. *Shāraka al-atāshīh ath-thaqāfī fī al-ijtimā‘ ad-diblūmāsī.* “Madaniy attashe diplomatik yig‘ilishda ishtirok etdi.”

Mazkur misolda fonetik o‘zgargan o‘zlashma diplomatik termin ال *al* aniqlik artiklini olib, grafik jihatdan yana boshqa shaklga kirib bormoqda.

استقبل السفير الأتاشيه العسكري في مقر السفارة. *Istaqbala as-safīr al-atāshīh al-‘askarī fī maqarr as-sifāra.* “Elchi elchixonabinosida harbiy attasheni qabul qildi.

Arab tilining “Robot akademiyasi” tomonidan ushbu diplomatik terminga ملحق *mulḥaq* varianti taklif qilingan bo‘lib, rasmiy yozishmalar va darajalarda ishlatiladi:

استقبل وزير الدفاع الملحق العسكري الفرنسي في السفارة. *Istaqbala wazīr ad-difā‘ al-mulḥaq al-‘askarī al-faransī fī as-sifāra.* “Mudofaa vaziri elchixonadagi Fransiya harbiy attashesini qabul qildi.”

Ushbu ملحق *mulḥaq* so‘zining ildizi ل-ح-ق (l-ḥ-q) bo‘lib, “qo‘shilmoq”, “birikmoq”, “ergashmoq” ma’nolarini anglatadi. Asl ma’nosi “biriktirilgan”, “ilova qilingan” degan ma’noni ifodalaydi.

استقبل قائد القوات المشتركة الملحق العسكري بسفارة جمهورية فرنسا. *Istaqbala qā‘id al-quwwāt al-mushtaraka al-mulḥaq al-‘askarī bisifārat Jumhūriyyat Faransā.* “Qo‘shma qo‘shinlar qo‘mondoni Fransiya Respublikasi elchixonasining harbiy attashesini qabul qildi.”

3. الاقتراض اللغوي (al-iqtirād al-lughawī) – ‘leksik o‘zlashtirish’

Nizomda leksik o‘zlashtirish masalasining alohida ajratilganligi va unda shunday jumlar

(نظام الداخلي للجنة العربية العليا للتقييس. مركز المواصفات والمقاييس الرباط. 2020: ص. 3) keltirilganligi:

"Al-iqtirād al-lughawī zāhira shā'i'a fī al-muṣṭalahāt ad-diblūmāsiyya. "Leksik o'zlashtirish diplomatik terminlarda keng tarqalgan hodisadir".

Ayni shu tartib uchun quyidagi misolni keltirish mumkin: Ingliz tilidagi 'strategy' 'strategiya', 'strategik reja' termini uchun arab diplomatik terminologiyasida o'zlashma bo'lgan استراتيجية istirātījiyya fonetik qo'shimcha qo'shilishi natijasida o'zlashgan deb baholash mumkin. Bu yerda ikki undoshdan oldin i orttirilgan bo'lib, g'arb tillariga xos bo'lgan ikki undosh ketma-ket kelgan o'zlashmalar orasiga yoki dastlabki undoshdan oldin bir unli tovush orttirilishi leksik birlik shakllantirilayotganda amal qiladi.

وضعت الدولة استراتيجية جديدة للتعاون الدولي. Waḍa'at ad-dawla istirātījiyya jadīda lil-ta'āwun ad-duwalī. "Davlat xalqaro hamkorlik uchun yangi strategiya ishlab chiqdi."

Yana bir misolni keltirish o'rinli bo'ladi: O'zlashmalardagi g tovushining ġ [g'oyin] (transkripsiyasi – gh)ga aylanishi. Xalqaro siyosiy terminlardan biri hisoblangan 'congress' 'kongress' o'z o'rnida arab tili diplomatik terminlari qatoriga كونغرس kūnghris shaklida o'zlashgan. Bunda g tovushining arab tilida mavjud emasligi inobatga olinib, ġ (gh)ga almashtirilgan va bu holat yozuvda ham ifodalangan.

ألقى الرئيس الأمريكي كلمة أمام الكونغرس. Alqā ar-ra'īs al-amrīkī kalima amāma al-kūngrīs. "Amerika prezidenti Kongress oldida nutq so'zladı".

Arab tili Robot akademiyasi tomonidan bu terminning rasmiy dubleti sifatida مجلس تشريعي majlis tashrī'ī 'qonunchilik kengashi' birikma termini berilgan va eng asosiysi, taklif qilingan variantlar ham OAVdagi materiallarda ularni qo'llab turadi.

أقرّ المجلس التشريعي مشروع القانون بعد مناقشات مطولة. Aqarra al-majlis at-tashrī'ī mashrū' al-qānūn ba'da munāqashāt muṭawwala. "Qonunchilik kengashi uzoq muhokamalardan so'ng qonun loyihasini tasdiqladi".

4. الترجمة الصوتية (at-tarjama aṣ-ṣawtiyya) – 'fonetik transliterasiya'

Nizomda bu masala alohida ko'rsatilgan va quyidagi tartib bilan aks etgan (نظام الداخلي للجنة العربية العليا للتقييس. مركز المواصفات والمقاييس الرباط. 2020: ص. 3):

تستخدم الترجمة الصوتية في أسماء المؤسسات والمنظمات الدولية. Tustakhdamu at-tarjama aṣ-ṣawtiyya fī asmā' al-mu'assasāt wa al-munazzamāt ad-duwaliyya. "Fonetik transliterasiya xalqaro tashkilotlar va muassasalar nomlarida qo'llanadi."

Arab diplomatik terminologiyasida الترجمة الصوتية at-tarjama aṣ-ṣawtiyya, ya'ni "fonetik transliterasiya" alohida usul sifatida muhim o'rin tutadi. Bu usul, asosan, xorijiy atamani arab tiliga ma'nosini tarjima qilish orqali emas, balki uning talaffuzini arab grafikasi va fonetik tizimiga moslashtirish orqali qabul qilishni anglatadi. Bunday holat ayniqsa xalqaro tashkilotlar, muassasalar, dasturlar, agentliklar va texnik-diplomatik nomlarda ko'p uchraydi. Ko'pincha bitta matnda ham arabiy yozuvda, ham xalqaro qabul qilingan qisqartma shaklida mavjud.

UNESCO → يونسكو (Yūniskū)

الهيئة التونسية على قائمة التراث العالمي (UNESCO) "أدرجت منظمة الأمم المتحدة للتربية والعلم والثقافة" يونسكو Adrajat Munazzamat al-Umam al-Muttaḥida li-t-Tarbiya wa-l-'Ilm wa-th-Thaqāfa "Yūniskū" (UNESCO) al-harīsa at-tūnisiyya 'alā qā'imat at-turāth al-'ālamī ghayr al-māddī. "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti — 'YuNESKO' (UNESCO) Tunis harissasini nomoddiy jahon merosi ro'yxatiga kiritdi."

Bu misolda tashkilot nomi uch xil shaklda berilgan: منظمة الأمم المتحدة للتربية والعلم والثقافة — to'liq arabcha ma'noviy tarjima; يونسكو Yūniskū arab yozuvidagi fonetik transliterasiya; UNESCO — xalqaro lotincha qisqartma. Demak, arab OAV matnida fonetik o'zlashma va xalqaro qisqartma birgalikda qo'llangan.

UNICEF → يونيسيف (Yūnisīf) UNICEF ham xuddi shunday usulda o'zlashtirilgan. Uning

arabcha shakli: منظمة الأمم المتحدة للطفولة *munazzamat al-umam al-muttaḥida li-t-ṭufūla*. Unda soʻzning fonetik tuzilishi saqlangan: yu-ni-sīf. Bu yerda arab tiliga xos boʻlmagan qisqartma grafik jihatdan arab alifbosiga moslashtirilgan. Shu bilan birga, termin xalqaro maqomini yoʻqotmagan. Quyida UNICEF atamasi uchun OAV uslubiga yaqin, rasmiy-axborot matnidan olingan misol:

أعلنت منظمة الأمم المتحدة للطفولة (يونيسيف)، اليوم السبت، تسجيل نحو 9 آلاف و300 حالة سوء تغذية حاد بين الأطفال دون سن الخامسة في قطاع غزة. *Aʻlanat Munazzamat al-Umam al-Muttaḥida li-t-Ṭufūla (Yūnīsīf), al-yawm as-sabt, tasjīla nahwi tisʻati ālāf wa-thalāthi miʻati ḥālatin min sūʻi taghdhiya ḥādd bayna al-atfāl dūna sinn al-khāmisa fī Qiṭāʻ Ghazza.* “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamgʻarmasi — YuNISEF, shanba kuni Gʻazo sektorida besh yoshgacha boʻlgan bolalar orasida 9 ming 300 ga yaqin ogʻir toʻyib ovqatlanmaslik holati qayd etilganini maʼlum qildi.”

Bu misolda UNICEF atamasi arab tilida *yūnīsīf* sof maʼnoviy tarjima emas, balki fonetik transliterasiya natijasidir. Yaʼni inglizcha xalqaro qisqartmaning talaffuzi arab yozuvi vositalari orqali ifodalangan. Shu bilan birga, matnda atamaning toʻliq arabcha izohi ham keladi: منظمة الأمم المتحدة للطفولة *munazzamat al-umam al-muttaḥida li-t-ṭufūla* “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamgʻarmasi/bolalar tashkiloti”. Demak, jurnalistik matnda ikki usul birlashgan: avval semantik izoh, keyin qavs ichida xalqaro nomning arablashgan shakli.

Intelsat → إنتلسات (**Intilsāt**) Bu xalqaro sunʼiy yoʻldosh aloqasi tizimi/tashkiloti nomining arabcha fonetik shaklidir (“International Telecommunications Satellite Organization” “Xalqaro telekommunikasiya sunʼiy yoʻldoshi tashkiloti”).

أعلنت شركة أريان سبيس الفرنسية أن صاروخ أريان 44-إل ... حاملا قمر الاتصالات إنتلسات-902. *aʻlanat sharikat aryān spays al-faransiyya anna šārūkh aryān-44 l ... ḥāmilan qamar al-ittiṣālāt intilsāt-902.* “Fransiyaning Arianespace kompaniyasi Ariane-44L raketasi Intelsat-902 aloqa sunʼiy yoʻldoshini olib uchirilganini maʼlum qildi.”

Bu misolda 902-إنتلسات *intilsāt-902* shakli OAV matnida sunʼiy yoʻldosh nomi sifatida qoʻllangan. Bu sunʼiy yoʻldoshi Yevropa, Afrika, Osiyo, Yaqin Sharq va Avstraliya hududlarida telefon va maʼlumot uzatish xizmatlarini taʼminlashi qayd etilgan. *intelsat* fonetik oʻzlashma hisoblanadi. Bu yerda soʻzning maʼnosi arabchaga tarjima qilinmagan, balki uning xalqaro talaffuzi arab grafikasi orqali ifodalangan.

NATO → ناتو (**Nātū**) / الناتو (**An-Nātū**) Ingliz tilidagi diplomatik-siyosiy abbreviatura hisoblanadi: “North Atlantic Treaty Organization” “Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti”. Arabchada ushbu abbreviaturaga منظمة حلف شمال الأطلسي *Munazzamat Ḥilf Shamāl al-Aṭlasī*. Ammo arab tilida, odatda rasmiy hujjatlar yoki OAVda arabcha shakli bilan bir vaqtda, inglizcha qisqartmaning arabiy transliterasiyasi bilan yozilganining guvohi boʻlish mumkin:

لم تغير منظمة حلف شمال الأطلسي (الناتو) شيئا في أسس مهمتها. *Lam tughayyir munazzamat ḥilf shamāl al-aṭlasī (an-nātū) shayʻan fī usus muhimmatihā.* “Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti — NATO oʻz vazifasining asosiy tamoyillarida hech narsani oʻzgartirmadi”.

Ayrim oʻrinlarda arabcha matnda inglizcha varianti ham ishlatilgan variantlar uchraydi:

تأسس عام 1949 كحصن ضد الاتحاد السوفييتي السابق، وتوسع منذ ذلك ليضم 30 NATO يُذكر أن حلف شمال الأطلسي دولة. *Yudhkaru anna ḥilf shamāl al-aṭlasī NATO taʻassasa ʻāma 1949 ka-ḥiṣnin ḍidda al-ittiḥād as-sūfiyūt as-sābiq, wa-tawassaʻa mundhu dhālika li-yaḍumma thalāthīna dawla.* “Eslatib oʻtiladiki, Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti — NATO 1949 yilda sobiq Sovet Ittifoqiga qarshi qalʼa sifatida tashkil etilgan va shundan buyon kengayib, 30 davlatni oʻz ichiga olgan.”

Interpol → الإنتربول (**Al-Intirbūl**) Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti nomini tahlilga tortamiz. ‘Interpol’ *intirbūl* shaklida arab tiliga talaffuz normasiga muvofiq kirgan. Soʻz boshidagi *l i* oʻzlashma soʻzning unli bilan boshlanishini arab yozuvida belgilaydi. Shu bilan birga منظمة الشرطة الجنائية الدولية *munazzama ad-davliyya li-sh-shurṭa al-jināʻiyya* sifatida toʻliq ishlatiladi va koʻp hollarda qavs ichida ushbu terminning oʻzlashmasi ham keltiriladi:

نفذت منظمة الشرطة الجنائية الدولية (الإنتربول) عملية أمنية واسعة *Naffadhat munazzamat ash-shurṭa al-jinā'iyya ad-duwaliyya (al-intirbūl) 'amaliyya amniyya wāsi'a*. “Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti — Interpol keng ko‘lamli xavfsizlik amaliyotini o‘tkazdi.”

OPEC → أوبك (Ūbik) Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (‘Organization of the Petroleum Exporting Countries’). منظمة الدول المصدرة للبترول *munazzamat ad-duwal al-muṣaddira li-l-bitrūl* to‘liq arabcha nom sifatida, أوبك *ūbik* esa qavs ichida xalqaro qisqartmaning arablashgan shakli sifatida kelgan, talaffuz asosida arablashtirilgan.

تأسست منظمة الدول المصدرة للبترول (أوبك) يوم 14 سبتمبر/أيلول 1960. *ta'assasat munazzamat ad-duwal al-muṣaddira li-l-bitrūl (ūbik) yawma arba'ata 'ashara sibṭambir/aylūl 1960*. “Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEK) 1960-yil 14-sentyabr kuni tashkil etilgan.”

ASEAN → آسيان (Āsyān) ‘Association of Southeast Asian Nations – ASEAN’ ‘Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi’ – رابطة دول جنوب شرق آسيا *rābiṭat duwal janūb sharq āsiyā* (آسيان *Āsyān*) haqida to‘xtalamiz.

أعلنت رابطة دول جنوب شرق آسيا (آسيان) انضمام الجزائر وأوروغواي إلى معاهدة الصداقة والتعاون *A'lanat rābiṭat duwal janūb sharq āsiyā (āsyān) inḍimām al-jazā'ir wa-urūghwāy ilā mu'āhadat aṣ-ṣadāqa wa-t-ta'āwun*. “Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi — ASEAN Jazoir va Urugvayning do‘stlik va hamkorlik shartnomasiga qo‘shilganini e‘lon qildi.”

Ayrim hollarda faqat xalqaro qisqartmasi arab yozuvida kelishi mumkin. OAVdan misol keltiramiz:

آسيان "تسعى لتعامل مشترك مع تداعيات حرب إيران" *Āsiyān "tas'ā li-ta'āmul mushtarak ma'a tadā'iyāt ḥarb Īrān*. “ASEAN Eron urushi oqibatlarini bilan bog‘liq umumiy yondashuvga intilmoqda”.

Munozara. Yuqoridagi OAV misollari shuni ko‘rsatadiki, arab diplomatik terminologiyasida fonetik o‘zlashish bir necha bosqichda amalga oshadi:

Birinchidan, xalqaro terminning talaffuz shakli saqlanadi. Masalan, NATO – ناتو *nātū*, ASEAN – آسيان *āsyān*, Intelsat – إنتيلسات *intilsāt* kabi atamalarda asosiy e‘tibor ma‘noga emas, balki tovush shakliga qaratilgan.

Ikkinchidan, arab tilida mavjud bo‘lmagan tovushlar yaqin arabcha tovushlar bilan almashtirilgan. Bu, ayniqsa, OPEC – أوبك *ūbak* va Interpol – إنتربول *intirbūl* misollarida ko‘rinadi. Har ikki holatda ham inglizcha **p** tovushi arabcha ب (b) bilan berilgan. Fonetik jihatdan UNICEF so‘zi arab yozuvida يوني-سيف *yū-nī-sīf* bo‘g‘inlariga ajraladi. Bu yerda inglizcha **c** harfi /s/ tarzida talaffuz qilingani uchun arabchada س harfi bilan berilgan. Oxirgi **f** tovushi esa arab tilida mavjud bo‘lgan ف orqali ifodalangan. Shu tariqa atama arab grafikasiga moslashtirilsa-da, uning xalqaro fonetik qiyofasi saqlanib qolgan.

• **Uchinchidan,** uzun unlilar arab grafikasi orqali barqarorlashtiriladi. ناتو *nātū* terminida ا so‘zida ا so‘zida ا tovushning cho‘ziqligini belgilaydi. و, آسيان *āsyān* terminida أوبك *ūbak* so‘zida ا so‘zida ا tovushning cho‘ziqligini belgilaydi. Grafik nuqtai nazardan, يونيسيف *yūnīsīf* shaklida arab tili uchun tabiiy bo‘lgan uzun unlilar vositasida talaffuz barqarorlashtiriladi: و /ū/ tovushini, ي esa /ī/ tovushini beradi. Bu holat arab tilida xorijiy qisqartmalarni yozishda keng uchraydi, chunki arab grafikasida qisqa unlilar odatda yozilmaydi, ammo xalqaro atamalarni aniq o‘qish uchun uzun unli harflardan foydalaniladi.

• **To‘rtinchidan,** fonetik o‘zlashgan terminlar arab tiliga kirgandan keyin grammatik jihatdan moslashadi. Ularga ال (al) aniqlik artikli qo‘shiladi: الإنتربول *al-intirbūl*, الناتو *an-nātū*. Shuningdek, ular izofali birikmalarda ishlatiladi: قمة آسيان *qimmat āsiyān*, دول أوبك *duwal ūbak*, حلف الناتو *ḥilf an-nātū*. Morfologik jihatdan يونيسيف *yūnīsīf* arab tilida yasama so‘z emas. U arabcha ildiz-vazn tizimiga kirmaydi, ya‘ni unda arab tiliga xos uch undoshli o‘zak yoki vazn modeli yo‘q. Shu sababli u دخيل / *dakhīl* - “o‘zlashma so‘z” sifatida qaraladi. Biroq matnda unga arabcha grammatik vositalar qo‘shilishi mumkin: المنظمة *al-munazzamat* shaklida ال aniqlik artikli qo‘shiladi;

اليونيسيف birikmasida esa u izofali yoki izohlovchi birlik sifatida ishlatiladi. Bu holat atamaning arab tiliga faqat yozuvda emas, balki sintaktik jihatdan ham moslashganini ko'rsatadi.

• **Beshinchidan**, OAV matnlarida ko'pincha ma'noviy tarjima + fonetik transliterasiya modeli qo'llanadi:

- NATO ;
- منظمة الشرطة الجنائية الدولية (الإنترپول) *munaẓẓamat ash-shurṭa al-jinā'iyya ad-dawliyya (al-intirbūl / al-interpol)* – Interpol;
- OPEK ;
- All rights reserved .

Morfologik bosqichda biror tildan o'zlashayotgan termin qaysi so'z turkumiga oid bo'lsa, o'zlashtiruvchi tilda o'sha so'z turkumiga oid grammatik kategoriyalarga moslashadi. Masalan, muayyan termin ot so'z turkumiga oid bo'lsa ko'plik kategoriyasi, otdan so'z yasash usullariga, sifat so'z turkumiga oid bo'lsa, sifatlarning qiyosiy va orttirma darajasi va so'z yasash modellariga, fe'lga tegishli bo'lsa, fe'lning so'z yasash, zamon, mayl va nisbat kategoriyalariga moslashadi.

Arab tilidagi diplomatik terminologiyada grammatik jihatdan o'zlashgan birliklar alohida qatlamni tashkil qiladi. Bunday terminlarda xorijiy manbadan kirgan so'z arab tilining grammatik qonun-qoidalariga moslashtiriladi. Ya'ni, termin arab tiliga kirgach, unga arabcha ko'plik qo'shimchalari qo'shiladi, nisbat yasovchi affikslar ishlatiladi yoki u izofa va birikma shakllarida qo'llanadi. Shu tariqa o'zlashma birlik arab tilining ichki grammatik tizimiga moslashadi. Arab tilshunosligida bu hodisa...

Xulosa. Bunday misollardan ko'rinadiki, fonetik transliterasiya arab diplomatik tilida bir necha vazifani bajaradi:

Birinchidan, u xalqaro tashkilot yoki muassasaning asl nomini saqlab qoladi. Semantik jihatdan esa, masalan, يونيسيف atamasi o'zining xalqaro institutsional ma'nosini saqlaydi. U oddiy “bolalar tashkiloti” emas, balki aniq bir xalqaro tashkilot - UNICEFni anglatadi. Shuning uchun arab OAVida ko'pincha avval منظمة الأمم المتحدة للطفولة kabi tushuntiruvchi nom beriladi, keyin يونيسيف shakli ishlatiladi. Birinchi shakl o'quvchiga mazmunni ochib beradi, ikkinchi shakl esa xalqaro tanilgan nomni saqlaydi.

Ikkinchidan, terminni arab yozuviga moslashtirib, uni arab tilidagi rasmiy matnlarda qo'llash imkonini beradi.

Uchinchidan, xalqaro kommunikatsiyada tushunmovchilikning oldini oladi, chunki UNESCO, UNICEF, Intelsat kabi nomlar butun dunyoda bir xil taniladi.

Shu jihatdan, fonetik transliterasiya arab diplomatik terminologiyasini boyitishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. U orqali arab tili xalqaro siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va texnik sohalarda paydo bo'layotgan yangi nom va atamalarni o'z tizimiga kiritib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Qinai, J. B. S. (2000). Morphophonemics of loanwords in Arabic. *Studies in the Linguistic Sciences*, Vol. 30, no. 2, pp. 1–25.
2. An-Nizām ad-Dākhilī lil-Lajna al-'Arabiyya al-'Ulyā lit-Taḡyīs. (2020). Markaz al-Muwāṣafāt wa-l-Maḡāyīs. Ar-Ribāt, p. 3. (طابرا لا سيقاقلماو)
3. International Organization for Standardization. (n.d.). ISO Standard 4118. Available at: <https://www.iso.org/standard/4118>
4. United Nations Arabic Portal. (n.d.). Diplomacy for Peace. Available at: <https://www.un.org/ar/peaceandsecurity/diplomacy-for-peace>
5. United Nations Arabic Portal. (n.d.). International Day of Parliamentarism. Available at: <https://www.un.org/ar/observances/parliamentarism-day>

6. United Nations Security Council. (n.d.). Sanctions Subsidiary Organs Committee. Available at: <https://main.un.org/securitycouncil/ar/content/repertoire/sanctions>
7. United Nations Development Program (UNDP) Arabic Portal. (n.d.). Available at: <https://www.undp.org/ar/arab-states>
8. United Nations News Arabic. (n.d.). Available at: <https://news.un.org/ar/>
9. Ministry of Foreign Affairs of Saudi Arabia (MOFA). (n.d.). Visa Services Portal. Available at: <https://visa.mofa.gov.sa/>
10. Ministry of Foreign Affairs of Saudi Arabia (MOFA). (n.d.). Electronic Services. Available at: <https://www.mofa.gov.sa/ar/eservices/>
11. Saudi Press Agency (SPA). (n.d.). Official News Portal. Available at: <https://www.spa.gov.sa>
12. Al Jazeera Arabic. (n.d.). News Portal. Available at: <https://www.aljazeera.net/>
13. Watson, J. C. E. (2002). The Phonology and Morphology of Arabic. Oxford: Oxford University Press, XIII, 307 p.